

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING AKADEMİK VA TASHKILIY-
BOSHQARUV MUSTAQILLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-
TADBIRLAR TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sodan Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish **koncepsiyasida** belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lif muassasalarining mustaqilligini kengaytirish, ular faoliyatida davlat ma'muriy boshqaruvini keskin kamaytirish hamda shu orqali o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta'lif muassasalarini shakllantirish maqsadida:

1. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lif muassasalariga quyidagi qo'shimcha vakolatlar berilsin:

a) akademik mustaqillik sohasida:

o'quv rejalar, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lif tilini hamda ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lif olish shaklini belgilash;

bakalavriat ta'lif yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o'qish davomiyligi muddatlarini belgilash;

doktoranturada to'lov-kontrakt asosida o'qish qiymatini belgilash, budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish;

doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash;

magistratura bosqichida ta'limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha qo'sh malakalar, shu jumladan amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish;

o'zaro kelishuvlar asosida oliy ta'lif muassasalari bilan akademik mobililikni amalga oshirish;

oliy ta'lif muassasasi va uning tuzilmasidagi ta'lif muassasalari uchun o'z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish;

ta'lif sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish;

b) tashkiliy-boshqaruvdagi mustaqillik sohasida:

faoliyatining asosiyo yo'nalishi ta'lif, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan, davlat budgeti mablag'lar hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish;

oliy ta'lif muassasalari uchun belgilangan normativlardan qat'i nazar muassasaning tuzilmasini tasdiqlash va shtat birliklari sonini belgilash;

mehnat bozoridagi ehtiyojdan kelib chiqib, yangi ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklarni ochish, amaldagi ta'lif yo'nalishlari hamda mutaxassisliklarni tugatish;

pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid tartibni belgilash;

xorijiy davlat fuqarolarini to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish va masofaviy ta'lif olish shaklida o'qitishni tashkil etish.

Belgilansinki, ushbu bandda nazarda tutilgan vakolatlar oliy ta'lif muassasalari tomonidan qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

2. Vazirlar Mahkamasining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) Vazirlar Mahkamasi, vazirlilik (idora)larning quyidagi vakolatlarini ta'lif muassasalariga o'tkazish:

chet el fuqarolarining o'qishini xorijiy oliy ta'lif muassasalaridan respublika davlat oliy ta'lif muassasalariga ko'chirish;

oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi raisi va mas'ul kotibini, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan imtihonlar bo'yicha qabul komissiyasi raisi va a'zolari, imtihonlar jadvali, imtihon olinadigan fanlar dasturlari va baholash mezonlarini tasdiqlash;

oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning amaliyotni o'tash tartibini tasdiqlash va uni tashkil etish;

oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida ichki tartib qoidalari, jumladan ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga doir talablarni belgilash.

b) Vazirlar Mahkamasining oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim sohasidagi quyidagi vakolatlarini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga (keyingi o'rnlarda — Vazirlik) o'tkazish:

oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro'yxatini tasdiqlash;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'qish davomiyligining eng kam muddatlarini belgilash;

kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakli joriy etilmaydigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini belgilash;

darsliklar, o'quv va ilmiy adabiyotlarni tayyorlash, nashr etish tartibini, shuningdek, ularni yetkazib berishga va ulardan ta'lim tashkilotlarida foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilash;

ta'lim muassasalariga nisbatan moddiy-texnik, infratuzilmaviy va parametrik talablarni belgilash;

v) ilmiy kengash a'zolarining yarmidan ko'pi mazkur kengashni tuzgan ta'lim muassasasi (ilmiy tashkilot)da faoliyat yurituvchi olimlardan iborat bo'lishi haqidagi talabni bekor qilish.

3. 2022-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida vasiylik kengashlari tugatilsin hamda tarkibining kamida 70 foizi tegishli vazirlik, idoralar, kadrlar buyurtmachilari, jamoatchilik vakillari va homiylardan iborat bo'lgan yuridik shaxs maqomisiz oliy ta'lim muassasalarining Kuzatuv kengashlari tashkil etilsin.

Belgilab qo'yilsinki:

Kuzatuv kengashining tarkibi tizimida oliy ta'lim muassasasi mavjud tegishli vazirlik (idora) tomonidan tasdiqlanadi;

moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasasi rektori Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Kuzatuv kengashi o'z vakolatlarini oliy ta'lim muassasasi kengashiga topshirishga, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi kengashiga kiruvchi vakolatlarni o'z zimmasiga olishga haqli.

4. Belgilansinki, Vazirlik davlat va davlat ulushi mavjud oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori) lavozimiga nomzodlar zaxirasini shakllantiradi, shuningdek, nomzodlar va rektor (direktor)larning boshqaruv qobiliyatini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, taqdim etilayotgan akademik, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv mustaqillikdan samarali foydalanish mavzularida tashkil etiladigan maqsadli malaka oshirish kurslarida o'qishini tashkil etadi.

5. Vazirlik tizimida oliy ta'lim muassasasi mavjud vazirlik (idora)lar bilan birgalikda:

ikki oy muddatda davlat oliy ta'lim muassasalarining xalqaro ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar bazalariga doimiy a'zoligini ta'minasin hamda ulardan talaba, tadqiqotchi va o'qituvchilarning bepul foydalanishini yo'liga qo'yisin;

2022-yil yakuniga qadar barcha davlat oliy ta'lim muassasalari kutubxona fondidagi o'quv adabiyotlarining to'liq elektron shaklga o'tkazilishini ta'minasin hamda Vazirlik huzurida yagona "Elektron kutubxona" platformasini ishga tushirsin.

Belgilansinki, "Elektron kutubxona" platformasini ishlab chiqish va yuritish Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

6. Vazirlik tomonidan oliy ta'lim muassasalarida hisobotlarni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish hamda ta'lim muassasasi faoliyatini avtomatlashtirish bo'yicha Jahon banki bilan hamkorlikda Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi (keyingi o'rnlarda — Axborot tizimi) ishlab chiqilayotganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Vazirlik Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik (idora)lar bilan birgalikda:

a) birinchi bosqichda — 2022-yil 1-martga qadar:

Axborot tizimining “O‘quv jarayonini boshqarish” qismini joriy qilsin. Bunda oliv ta’lim muassasasining akademik faoliyati, xususan, talabaning davomat hisoboti, o‘zlashtirish qaydnomasi va reyting daftarchasi, shuningdek, guruh jurnali, dars va imtihon jadvallari raqamlashtiriladi;

Axborot tizimining “Ilmiy jarayonni boshqarish” qismini joriy qilsin. Bunda professor-o‘qituvchilarining ilmiy loyihalari, maqolalari, ilmiy-uslubiy nashrlari, ilmiy izlanuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi hamda professor-o‘qituvchilar va kafedralarning ilmiy salohiyatini baholash masalalari avtomatlashtiriladi;

Axborot tizimining “Ma’muriy jarayonni boshqarish” qismini joriy qilsin. Bunda oliv ta’lim muassasasining tuzilmasi, boshqaruv kadrlari, professor-o‘qituvchilar tarkibi va talabalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yuritish hamda tegishli hisobotlarni tayyorlash raqamlashtiriladi;

Axborot tizimining “Moliya-xo‘jalik faoliyatini boshqarish” qismini joriy qilsin. Bunda to‘lov-shartnomalar elektron ko‘rinishda taqdim etiladi, stipendiya to‘lovlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tizim orqali amalga oshiriladi;

b) ikkinchi bosqichda — 2022-yil 1-mayga qadar Axborot tizimining “Ta’lim sifatini nazorat qilish” qismini joriy qilsin. Bunda ta’lim sifati bo‘yicha oliv ta’lim muassasalari ko‘rsatkichlarining ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi va oliv ta’lim muassasalari milliy reytingini yuritish avtomatlashtiriladi hamda ta’lim sifati monitoringini masofaviy shaklda olib borish imkoniyati yaratiladi.

Belgilansinki:

Axborot tizimi 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab o‘qishga qabul qilingan talabalarni to‘liq qamrab olgan holda bosqichma-bosqich joriy etiladi;

ta’lim jarayonlarini boshqarishning boshqa dasturiy ta’minotiga ega oliv ta’lim tashkilotlari uchun Vazirlik va Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan belgilangan talablar bo‘yicha o‘z tizimining Axborot tizimiga integratsiya qilishi majburiy hisoblanadi;

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Axborot tizimidan tekin foydalanadi hamda unga ta’lim sifatini monitoring qilish, jumladan talaba, doktorant va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida ijtimoiy so‘rov o‘tkazish imkoniyati yaratiladi;

Axborot tizimini joriy etish va uning faoliyat yuritishini ta’minlash bilan bog‘liq xarajatlar oliv ta’lim muassasalarining mablag‘lari, texnik qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish xarajatlari Olyi ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi;

davlat oliv ta’lim muassasalariga Axborot tizimini joriy etish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Vazirlik tizimidagi tashkilotlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma tuzishga ruxsat beriladi.

7. Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi uch oy muddatda, jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini ta’minlash va nazorat qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori loyihasini ishlab chiqsin:

ta’lim tashkilotlarini akkreditatsiyalashning institutsional va maxsus (ta’lim yo‘nalishlari, ixtisoslik turlari va boshqalar bo‘yicha) shakllarini joriy etish;

ta’lim sifatini ta’minlash va nazorat qilish jarayoniga nodavlat tashkilotlarni jalb etish hamda nufuzli xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim tashkilotini navbatdagi davlat akkreditatsiyasidan ozod qilish;

ta’lim sifatini nazorat qilishda “tahlika-tahlil” tizimini joriy etish hamda o‘rganishlar qamrovi, davomiyligi va davriyligini ta’lim sifatining o‘zgarishi darajasiga qarab belgilash;

oliv ta’lim muassasalariga berilayotgan akademik mustaqillikni inobatga olgan holda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi vakolatlarini qayta ko‘rib chiqish.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari [ilovaga](#) muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Vazirlik uch oy muddatda qonunchilik hujjalariiga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritinsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib oliv va o‘rta maxsus ta’lim vaziri A.X. Toshkulov hamda tizimida oliv ta’lim muassasasi mavjud vazirlik va idoralar rahbarlari belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijo uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O’zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O’zbekiston Respublikasi Prezidentiga 2022-yil 1-iyul va 2023-yil 1-yanvarga qadar axborot berilsin.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 24-dekabr,
PQ-60-son

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son qaroriga
ILOVA

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining va O’zbekiston Respublikasi Hukumatining o’z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2-iyundagi “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-91-son qarori 5-bandining **ikkinchi xatboshisi** hamda qarorga **3-ilova**.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 22-iyuldagagi “Toshkent davlat stomatologiya institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2215-son qarorining **4-bandi** hamda qarorga **1-ilova**.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 3-sentabrdagi “Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tarkibida xitoysenoslik fakultetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2228-son qarorining **2-bandi** hamda qarorga **1-ilova**.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-maydagi “Toshkent davlat texnika universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2524-son qarorining **3-bandi** hamda qarorga **1-ilova**.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 11-maydagi “O’zbekiston Milliy universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2527-son qarorining **3-bandi** hamda qarorga **1-ilova**.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagagi “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3152-son qarori 3-bandining **ikkinchi** va **to‘rtinchi xatboshilar** hamda qarorga **1-ilova**.
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-noyabrdagi “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O’zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3390-son qarorining **6-bandi** hamda qarorga **ilova**.
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019 — 2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O’zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-son qarori 10-bandi **birinchi xatboshisining** birinchi jumlesi hamda qarorga **11-ilova**.
9. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rektorlarini davlat attestatsiyasidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 325-son **qarori**.
10. Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 26-martdagagi “Samarqand iqtisodiyot va servis institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi 144-son qarorining **3-bandi** hamda qarorga **1** va **2-ilovalar**.
11. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 13-maydagi “Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 153-son qarori 2-bandining **birinchi** va **ikkinchi xatboshilar** hamda qarorga **1-ilova**.
12. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi “O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 331-son qarori 3-bandining **ikkinchi xatboshisi**, **4-bandi** hamda qarorga **1-ilova**.

13. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagagi “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 569-son qarori 2-bandining **ikkinchi, oltinchi xatboshilari** hamda qarorga **1-ilova**.

14. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagagi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tarkibida xorijiy oliy ta’lim muassasalarining qo‘shma fakultetlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 574-son qarorining **7-bandi** hamda qarorga **ilova**.

15. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-maydagagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 288-son qarorining **13-bandi**.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021-y., 07/21/60/1177-son)